

INTILISHDAN YUKSALISH SARI

Zilola Mambetnazarova*UrDPI Filologiya va tarix fakulteti**O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi**2-bosqich 234-guruh talabasi*

Bugungi kunda ilm-fan taraqqiyoti, yangidan yangi texnologiyalarning rivojlanishi, yoshlarning har sohada ildamligi Yangi O'zbekistonni barpo etadi. Urganch shahrida 2022-yilda o'z ish faoliyatini boshlagan Urganch davlat pedagogika instituti yangi pedagogik kadrlarni tayyorlab, sifatli ta'limni yo'lga qo'ygan.

UrDPI rektori Feruza Madraximova bu yil, 2024-yilda, talabalarni yangi yetti qavatli talabalar turar joyi bilan ta'minladi va Qoraqalpog'iston Respublikasidan qo'shimcha kvota asosida kelgan talabalar bilan tanishib, 2024-2025-yildagi o'qishlarida muvaffaqiyatlar tiladi. UrDPI'dagi olib borilayotgan islohotlar, chet eldagi nufuzli institutlar bilan qilinayotgan hamkorlik biz yoshlar uchun imkoniyatlar eshigining ochilishi va ta'lim sifatining o'sishiga zamin yaratadi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, UrDPI Filologiya va tarix fakultetida 2-kursda o'qir ekanman, bu yerdagi professor o'qituvchilar talabalarga berayotgan ta'lim-tarbiyasi yangi kadrlarning yetishib chiqishida UrDPIning Filologiya va tarix fakulteti o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Fakultet dekani Masharipova Nargiza ham kitob ma'naviyatga eltuvchi yo'l deydi va fakultetimizda o'qiyotgan har bitta iqtidorli bo'lg'usi Zulfiyaxonim izdoshlarining har biriga ilmiy rahbar biriktirib ijod qilishlari, ilmiy maqolalar chop etishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berganlar. UrDPI Filologiya va tarix fakulteti "O'zbek va rus tili adabiyoti" kafedrasida 50 ga yaqin o'qituvchilar o'z ish faoliyatlarini olib bormoqdalar. Bulardan Asqarova Zulayxo Yangiboyevna, Yakubova Nilufar Egamberganovna, Sapayeva Gulnoza Ulug'bekovna, Qodirova Guli Marselovna, Allazarova Zulayxo, Abdullayeva Zulfizar hamda Ro'zmetova Dilfuza biz talabalarga mohirona dars o'tib kelmoqdalar. Filologiya va tarix kafedra mudiri Xo'jayeva Dilfuza Adambayevna fakultetda bu yil 2024-yilda ish boshlagan bo'lishiga qaramasdan qat'iyati, tartib-qoidani yaxshi ko'radigan, o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashadigan haqiqiy jonkuyar ustozimizdir. O'quv bo'limida ish faoliyati olib borayotgan Niyozmetov Anvar Baxodirovich, Baltabayeva Ma'mura Baxtiyorovna ham ishlab kelmoqdalar. Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari Qutlimurotov Sardor ustoz ham bizga kelgusida siz bo'lg'usi pedagogsiz, kiyinish madaniyatiga alohida e'tibor bering, o'qituvchi oddiy va samimiyligi bilan go'zal, O'zbekistonimizning gullab-yashnashi yosh avlodning ilm-ma'rifati bizning qo'limizdadir degan fikrlari bilan bizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydilar.

Bundan tashqari Tyutorlar jamoasi va Yoshlar ittifoqi yetakchisi ham o'z ishiga mas'uliyati, talabalarga hurmati bilan tartib-intizom o'rnatib kelmoqdalar. Bulardan M.Xo'jayeva, Y.Axmedova, G.Matchonova, Z.Annayazova, G.Qodirova, B.Bekchanov, O.O'rinov hamda Filologiya va tarix fakulteti Yoshlar yetakchisi Sh.Razzaqov ham o'z

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

hissalarini qo'shib kelmoqdalar. UrDPIning professor o'qituvchilari va shu yerda tahsil olayotgan talaba yoshlar kelajak bunyodkorlaridir. Intilamiz, yuksalamiz va yangi O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz!

